

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TERMIZIYLAR ILMIY MEROSINING O‘RGANILISH
AHAMIYATI

Majidov Azim Kaxxarovich

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22245934>

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonida Imom Termiziy va boshqa Termiziy allomalar ta’limotining o‘rganilish ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada “Sunani Termiziy” asari asosida hadis ilmining metodologik ilmiy asosi, shu bilan birga mazkur merosning tarbiyaviy-ma’naviy hamda mafkuraviy jihati ochib berilgan. Bundan tashqari Termiziy allomalar ilmiy merosining zamonaviy falsafiy hamda ijtimoiy tadqiqotlar bilan uyg‘unligi, mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ta’siri, globallashuv sharoitida ma’naviy-diniy barqarorlikning ta’minlanishidagi ahamiyati asoslab o‘tilgan. Termiziy allomalar qoldirgan ilmiy meros bugungi kun ilm-fanini boyitishda, milliy va diniy qadriyatlarni saqlashda hamda ularni xalqaro miqyosda integratsiya qilishda ahamiyatli manba ekani ta’kidlangan.

Kalit So‘z: Termiziyilar ilmiy merosi, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy taraqqiyot, “Sunani Termiziy”, hadis, diniy bilim, radikal talqin, axloqiy barkamollik, inson kamoloti, radikalizm, zamonaviy ilm-fan, jamiyat taraqqiyoti.

Аннотация: В данной статье анализируется значение изучения учения Имама ат-Тирмизи и других учёных-алимов Термиза в условиях процесса глобализации. На основе произведения «Сунан ат-Тирмизи» раскрываются методологические и научные основы хадисоведения, а также воспитательно-нравственные и идеологические аспекты данного наследия. Кроме того, обосновывается взаимосвязь научного наследия термизийских учёных с современными философскими и социальными исследованиями, его влияние на формирование идеологического иммунитета и значение в обеспечении духовно-религиозной стабильности в условиях глобализации. Подчёркивается, что научное наследие, оставленное термизийскими учёными, является важным источником обогащения современной науки, сохранения национальных и религиозных ценностей, а также их интеграции в международное научно-культурное пространство.

Ключевые слова: научное наследие термизийских учёных, глобализация, духовные ценности, духовное развитие, «Сунан ат-Тирмизи», хадис, религиозные знания, радикальная интерпретация, нравственное совершенствование, совершенствование личности, радикализм, современная наука, развитие общества.

Abstract: This article analyzes the significance of studying the teachings of Imam al-Tirmidhi and other scholars of Termez in the context of globalization. Based on the work *Sunan al-Tirmidhi*, the methodological and scholarly foundations of Hadith studies are examined, along with the educational, moral, spiritual, and ideological dimensions of this intellectual heritage. Furthermore, the article substantiates the relevance of the scholarly legacy of the Tirmidhi scholars to contemporary philosophical and social research, its influence on the formation of ideological immunity, and its importance in ensuring spiritual and religious stability under conditions of globalization. It is emphasized that the scholarly heritage left by the scholars of Termez serves as an important source for enriching contemporary science, preserving national and religious values, and integrating them into the international intellectual and cultural space.

Keywords: scholarly heritage of the Tirmidhi scholars, globalization, spiritual values, spiritual development, *Sunan al-Tirmidhi*, Hadith, religious knowledge, radical interpretation, moral excellence, human development, radicalism, modern science, social development.

Insoniyat XXI asrga kelib globallashuvning xalqaro miqyosda madaniy integratsiya hamda ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi, shuningdek, axborot almashinuvini tezlashtirayotganiga guvoh bo‘lmoqda. Bunday paytda milliy va diniy ilmiy merosni chuqur o‘rganish va tadqiq etish, mazkur merosni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim xarakter kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Imom Termiziy va Termiziy allomalar merosi nafaqat islom dini taraqqiyoti, balki zamonaviy ma’naviy taraqqiyot uchun ham nodir manba bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, zamonaviy tadqiqotlar Imom Termiziyning ilmiy merosini,

ayniqsa, “Sunani Termiziy”da to‘plangan hadislarni ilmiy va ma’naviy barqarorlikning ta’minlanishida muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, globallashuv sharoitida hadislarning muhimligini yana bir ko‘rsatib bermoqda.

“Sunani Termiziy” asari asosida hadis ilmini tizimga keltirish va tahlilini amalga oshirishning ilmiy usullari shakllantirilgan bo‘lib, ushbu asar hadislarni jamlash bilan chegaralanib qolmay, balki ularni tasniflash, baholash hamda qiyosiy tahlil etish imkonini beradigan metodologik asosni ham yaratib beradi. Indoneziyaning UIN Sunan Gunung Djati Bandung universiteti Usuluddin fakulteti tadqiqotchisi V.Darmalaksana “Hadis tadqiqotida fan va texnologiya imkoniyatlari” (Science and technology opportunities in hadith research) nomli maqolasida hadis tadqiqotlarini zamonaviy ilm-fan bilan uyg‘un holda olib borish yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga olib kelganligini ta’kidlaydi. Mana shu kabi ilmiy fikrlardan ko‘rinib turibdiki, “Kutubi sitta” tarkibida e’tirof etilgan “Sunani Termiziy” asari Imom Termiziyning ilmiy merosi o‘laroq zamonaviy ilm-fan sohasida yangi ilmiy talqinlar majmuasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. globallashuv sharoitida esa bu metodologiya diniy bilimlarni radikal talqinlardan muhofaza qilishda dolzarb ahamiyatga ega.

Ayni paytda Termiziylar ilmiy merosining ma’naviy-tarbiyaviy va mafkuraviy ahamiyati bugun har qachongidan ham ko‘ra dolzarb sanaladi. Termiziylar merosi insonning odoib-axloqi, ma’naviy-ruhiy poklik hamda ijtimoiy adolat g‘oyalarini o‘zida singdirgan ta’limot hisoblanadi. bunga hadislarda insoniylik, poklik, mehr-oqibat va halollik singari qadriyatlar qamrab olinganini o‘rnak qilib keltirish mumkin. Olib borilgan tadqiqot ishlarida yoshlarning hadislarni to‘g‘ri anglashi, ularni tanqidiy tahlil qilishi va jamiyatda qo‘llay olishi ko‘nikmalari shakllanganda, axborot xurujlariga qarshi aqliy immunitet kuchayishi hamda diniy bilimlar sog‘lom va mu’tadil holda tarqalishi ta’kidlanadi. Bu g‘oyalar globallashuv sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishida muhim xususiyat kasb etadi. Shunday ekan, “Sunani Termiziy”da rivoyat qilingan hadislarda ham insonni axloqan komillikka chorlovchi jihatlar ustuvorlikka ega.

Termiziylar merosi faqat diniy emas, balki falsafiy va insoniylik jihatidan ham muhim sanaladi. Xususan, Hakim Termiziy ilmiy merosi inson tabiati, uning ma’naviy kamoloti, shuningdek, anglash va bilish jarayoniga doir ahamiyatli g‘oyalarni targ‘ib etadi. Bu esa Hakim Termiziyning merosi global ilmiy yondashuvga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatishi, shubhasiz. Ayniqsa, global ma’naviy tanazzul vaqtida bu g‘oyalar shaxs kamoloti nazariyasini qayta tadqiq etishda asos manba sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy dunyoning globallashuvida diniy ekstremizm va ma’naviy bo‘shliq singari masalalar paydo bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadigan jihat – diniy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdir. Bunday vaziyatda Termiziylar merosi mo’tadil, ilmiy hamda ma’naviy-ruhiy muvozanatni saqlab turishi bilan xarakterlanadi. Shu bois, Termiziylar merosini o‘rganish ilmiy ahamiyatga ega bo‘lish bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham dolzarb hisoblanib, o‘zaro bag‘rikenglik va barqarorlik omili sifatida o‘rtaga chiqadi.

Mamlakatimizda Termiziylar merosini o‘rganishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, uning amaliy ifodasi sifatida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini ta’kidlab o‘tish mumkin. Markaz nafaqat mahalliy doirada, balki xalqaro miqyosda ham keng faoliyat olib borishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Unga ko‘ra o‘tgan davr mobaynida Imom Termiziy va Termiziy allomalar ilmiy merosi dunyo bo‘ylab targ‘ib etib kelinmoqda. Ushbu Markazning tashkil etilishi milliy ilmiy merosni global ilmiy doiraga olib chiqish, uni jahon ilm-fani bilan uyg‘unlashtirish fursatini beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, globallashuv avj olgan davrda Termiziylar ilmiy merosini o‘rganish, tadqiq etish ilmiy metodologiyani takomillashtirish, ma’naviy-ruhiy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, diniy radikallashuvga qarshi ilmiy baza yaratish, milliy meros sanalgan Termiziylar ta’limotini dunyo ilm-faniga muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshiradi. Shuning uchun Imom Termiziy va boshqa Termiziy allomalar merosini chuqur o‘rganish va tadqiq etish zamonaviy ilm-fan va jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarb vazifa sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son qarori.

2. Imam Tirmizi. Sunen-I Tirmizi. Abdullah Parliyan. – Konya: 2004. s.773.
3. <http://www.enfal.de/tirmizi/index1.htm> (Edep bölümleri. 2753-h).
4. Solihin Ma'ruf, Tata Setiana, Muhammad Al Mighvar, Engkos Kosasih, Irvan Abdurrahman. Hadis Dalam Konteks Globalisasi: Peluang Dan Tantangan (Globalashuv kontekstida hadis: imkoniyatlar va chaqiriqlar). AL-AFKAR: Journal for Islamic Studies. Vol. 9 No. 1 (2026).
5. Vahyudin Darmalaksana. Science and technology opportunities in hadith research (Hadis tadqiqotida fan va texnologiya imkoniyatlari). IJIK Vol. 11. No. 1.
6. Mut'ah Latifah, Yasmin Saibatul Aslamiah. Critique and analysis of hadith in countering radicalism among youth (Yoshlar o'rtasida radikalizmga qarshi kurashda hadisning tanqidiy tahlili). SEAJIS Southeast Asian Journal of Islamic studies. Vol. 1, No. 1, 2025.